

# Andijon davlat tibbiyot institutida sport keng ommalashmoqda

Andijon davlat tibbiyot instituti professor-o'qituvchilari aholi o'tasida sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportni ommalashtirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Institut jamoasi aholini, jumladan yoshlarni, turli korxonalar, tashkilot xodimlarini sportga jalb qilish maqsadida institut Talabalar turar joyidagi sport zalida aholi uchun barcha sharoitlarni yaratdilar va turli sport musobaqalarini tashkil etishmoqda.



Bugun Milliy Bank Andijon viloyat bo'limi xodimlari ishtirokida sportning voleybol turi bo'yicha bahslar o'tkazildi.

Qiziqarli bahslarni institut i jismoniy tarbiya o'qituvchilari Z.Abdullayeva , A.Tuychiyev, B.Halilovlar kuzatib va baholab borishdi.



Qiziqarli sport bahslarida ishtirok etgan Milliy bank xodimlari institut ma'muriyatiga minnatdorchilik bildirishdi va sport bilan muntazam shug'ullanishga ahd qildilar.

**ADTI ma'naviyat va ma'rifat, yoshlar bilan ishlash bo'limi**

---

# **Andijon davlat tibbiyot instituti professor- o'qituvchilari Izboskan tumani umumta'lim maktablarida**

0'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 1-dekabrda 87-03-5020 hamda 2-dekabrda 87-02-664-sonli modemogrammalarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Andijon davlat tibbiyot instituti professor-o'qituvchilari Izboskan

tumanidagi 33-umumta'lim maktabida bo'lishdi.



Tibbiy biologiya kafedrası dotsenti T.Saydullayev, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti B.Botirova, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi Z.Raxmatova, tibbiy kimyo kafedrası o'qituvchisi S.Islomovalardan iborat ishchi guruhning tashrifidan ko'zlangan maqsad oliy ta'lim va maktablar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, "Tayyorlov kurslari"ni tashkil etishdan iborat bo'ldi.



Tashrif davomida bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan ochiq muloqotda bo'lib oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari, maktab dasturiga kiritigan fanlarning ahamiyati haqida tushunchalar, o'quvchilarni qiziqitgan savollarga batafsil javoblar berildi.



Andijon davlat tibbiyot instituti professor-o'qituvchilarining maktablar jamoalari bilan uchrashuvlari davomida mazkur hamkorlik muntazam davom etishi zarurligi alohida ta'kidlandi.

**ADTI axborot xizmati**